

**BOBURNOMA – JAHON ADABIYOTI VA
MANBASHUNOSLIGIDAGI MUHIM VA NOYOB YODGORLIK**

Mashhura KADIROVA,

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika
universiteti O‘zbek adabiyoti va uni o‘qitish metodikasi
kafedrası dotsenti v.b., p.f.f.d.(PhD)*

Feruza YERMUHAMMEDOVA,

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika
universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878297>

Annotatsiya. Zahiriddin Muhammad Boburdan qolgan ijodiy merosning eng muhim va eng yirigi O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi, etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan va adabiy tilning yorqin namunasi bo‘lgan "Boburnoma" asaridir. Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarining badiiy ifodasi, uning ijodini o‘rganishda talabalarga zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyatlari hamda ushbu asarning tarixiy va badiiya adabiyotning yuksak namunasi sifatida o‘rganilishi haqida fikr yuritiladi.

Tayanch so‘zlar: adabiyot, matn, manbaa, lirika, nazm, uslub, she‘r, ijod, devon, metodika, metod, innovatsiya.

Аннотация. Важнейшее и крупнейшее творческое наследие, оставленное Захируддином Мухаммадом Бабуром, содержит редкие и ценные сведения об истории, географии, этнографии народов Средней Азии, Афганистана, Индии и Ирана и представляет собой яркий образец литературного языка «Бабурнома». работа. В данной статье рассматривается художественное выражение произведения Захируддина Мухаммада Бабура «Бабурнома», возможности формирования необходимых знаний, умений и навыков у учащихся при изучении его творчества, а также изучение этого произведения как высокого образца исторической и художественной литературы.

Ключевые слова: литература, текст, источник, стих, стиль, поэма, творчество, деван, методология, метод, инновация.

Annotation. The most important and largest creative legacy left by Zahiruddin Muhammad Babur contains rare and valuable information about the history, geography, ethnography of the peoples of Central Asia, Afghanistan, India and Iran and is a vivid example of the literary language of "Baburnoma". Job. This article examines the artistic expression of Zahiriddin Muhammad Babur's work "Baburnoma", the possibility of developing the necessary knowledge, skills and abilities in students when studying his work, as well as the study of this work as a high example of historical and fiction literature.

Key words: literature, lyrics, verse, style, poetry, creativity, devan, methodology, method, innovation.

Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsi va ijodi bugungi kunda ham butun dunyoda qiziqib o'rganiladi. Buning asasiy sabablaridan biri Boburning ko'p qirrali faoliyati va bu haqda "Boburnoma" da sodda va haqqoniy ifoda etilishidir.

Asarning asli nomi "Boburiya" bo'lsa-da, uni "Voqeanoma", "Tuzuku Boburiy", "Voqeoti Boburiy" deb atadilar, keyinchalik asar "Boburnoma" degan nom bilan mashhur bo'lib ketdi. O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi, etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va adabiy tilning yorqin namunasini aks etgani bilan ham ahamiyatlidir.

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" voqeyi-ilmiy-sarguzasht asari mumtoz adabiyotimizning eng nodir nasriy namunasi sifatida hayotni haqqoniy aks ettirgani, o'ziga xos uslubi bilan alohida qadrli. Navoiy nasriy asarlaridan so'ng "Boburnoma" turkiy tilda yaratilgan badiiy, ilmiy nasr javohiri sifatida bugungi kunda dunyodagi yuzlab yirik fan tadqiqotchilari diqqatini o'ziga tortib kelmoqda.

"Boburnoma"ning XVI asrdayoq adabiyotchilar, tarixchilar, umuman, ilm ahli e'tiboriga sazovor bo'lgani ma'lum. Ushbu qomusiy asar hozirgacha dunyoning o'ttizga yaqin tiliga tarjima bo'lgan. Yaratilgan davrida forsiyga, XVII asrda golland tiliga, keyinchalik ingliz, fransuz, nemis, ispan, xitoy, hind, yapon, turk, rus, qozoq va boshqa tillarga o'girilgan.

Boburning o'z so'zi va uning qizi Gulbadanbegimning "Humoyunnoma" dagi ma'lumotlariga ko'ra, "Boburnoma" dastlab "Voqeanoma" deb atalgan. "Boburnoma" dagi bir ruboiysida shoir shunday degan edi: Bu olam aro ajab alamlar ko'rdu, Olam elidin turfa sitamlar ko'rdu, Har kim bu "Vaqoe" ni o'qur, bilgaykim, Ne ranju ne mehnatu ne g'amlar ko'rdu. "Boburnoma" ni ko'chirgan bir kotib uni "Boburiya" deb nomlaydi. Demak, "Boburnoma" asari o'z davrida yuqorida aytib o'tganimizdek bir qancha nomlar bilan atalgan ekan.

"Boburnoma" o'zida bayon qilingan voqealar jarayoniga ko'ra 3 qismga: Boburning Movaraunnahr (1494-1504), Afg'oniston (1504-1526) va Hindiston (1526- 1529)dagi hukmronlik davriga bo'linadi. Birinchi qismda Boburning otasi temuriylarning Farg'ona ulusi hokimi Umarshayx Mirzo xususida hamda Boburning Farg'ona taxtiga o'tirishi, ammo temuriylar davlatida avj olgan taxt uchun kurash oqibatida o'z ulusidan mahrum bo'lishi, Samarqand uchun Shayboniyxonga qarshi olib borgan jang-u jadallarining behuda ketishi va nihoyat, toj-u taxtdan butunlay ajrab, Hisor tog'lari orqali tahminan 250 navkar bilan Afg'onistonga yuz tutishi haqidagi voqealar batafsil zikr qilingan. Ikkinchi qismda Boburning Kobulni zabt etgani, so'ng u yerda mustaqil davlat tuzgani, Eron shohi Ismoil Safaviyning yordami bilan Samarqandni yana ishg'ol qilgani, lekin Shayboniylardan yengilib, Kobulga qaytgani, keyin esa Hindistonni zabt etishga hozirlik ko'ra boshlagani xususidagi

voqealar bayon etilgan. Uchinchi qism esa Boburning Dehli sultoni Ibrohim Lo`diyini mag`lub etib, shimoliy Hindistonni bosib olgani va Boburiylar davlatini barpo qilgani haqidagi ma`lumotlardan iborat.

“Boburnoma” sodda uslub, ravon, shirali va boy til bilan yozilgan, jonli manzaralar, portret va xarakterlar, original badiiy til vositalari bilan badiiylashtirilgan asardir. Aynan mana shu afzal jihatlari bilan “Boburnoma” uzoq zamonlardan buyon tarixchilarning va boshqa olimlarning diqqat- e`tiborini o`ziga jalb etib, yuksak baholanib kelmoqda. “Boburnoma” XV-XVI asr tarixiy hodisalari bilan tanishish va ularni umumlashtirish, davr xususiyatlarini belgilash va yoritishda juda ko`p xarakterli faktlar, ma`lumotlar beradi. “Boburnoma” o`zbek adabiyoti tarixida badiiy prozaning eng birinchi yirik namunasi hisoblanadi. Bu asar adabiyotimizda prozaning rivojlanishiga uzoq vaqt ijobiy ta`sir etib keldi.

Muallif o`z asarining ko`p qismlarini xuddi ana shu planda yozadi, o`z boshidan kechirgan va ko`rganlarini, o`zining atrofidagi yoki tarixiy aloqador bo`lgan odamlarni, bu odamlar nima qilgan bo`lsalar – ularning barchasini tasvirlaydi. Mazkur asarda muallifning juda chuqur bilimi, badiiy salohiyati va mahorati namoyon bo`ladi. “Boburnoma” da qahramonlarning harakatlar bilan voqealik uzviy va chambarchas bog`lanib ketadi. Muhimi shundaki, bu voqealarning barchasida Boburning hayoti va faoliyati, uning harbiy yurishlari yetakchilik qiladi. Ular o`quvchiga shunday yetkazib beriladiki, asarning ba`zi joylari badiiy umumlashma darajasiga ko`tariladi. “Boburnoma”ning syujeti juda murakkabdir. Bobur syujetni rivojlantirishda Sharq adabiyotida keng tarqalgan bayon ichiga bayon kiritish usulini qo`llaydi. Mazkur usul turli mavzularni qamrab olishga, konfliktning kuchayishiga va asarning serqirra bo`lishiga imkoniyat beradi.

Bobur biror tarixiy voqeani hikoya qilishga kirishar ekan, ko`pincha, avval voqeaning o`rnini batafsil tasvirlaydi, voqea da ishtirok etuvchi kishilarning aftbasharasidan tortib fe`l – atvori va hatti - harakatiga qadar ta`riflaydi, so`ng voqeaning bayoniga kirishadi. Ba`zan voqea davomida chekinish qilib, joy yoki manzarani tasvirlaydi. Kitobxonning ko`z o`ngida XV – XVI asrlardagi Movarounnahr, Xuroson, Afg`oniston va Hindiston o`lkalari, ulardagi shahar va qishloqlarning manzarasi, topografiyasi, ob-havosi, o`simliklar dunyosi, aholisi, urf-odatları namoyon bo`ladi.

“Boburnoma”ning tarixiy manba sifatida baholashga birinchi asos – tarixiy voqealar bayoni bo`lsa, ikkinchi asos asarda tarixiy shaxslar, ularning faoliyati va sarguzashtlarining ifoda etilishidir. “Boburnoma” da bir necha yuz tarixiy shaxslar haqida ma`lumot beriladi. Ular shohlar, viloyat hokimlari, amir – amaldorlar, askarlar, ilm – fan, san`at va adabiyot ahllari, dehqonlar, hunarmandlar va boshqa

kasb egalaridir. Adib ularni tasvirlayotgan voqealardagi rolga qarab birlari haqida keng va batafsil soʻzlaydi, ikkinchi birlari haqida qisqacha maʼlumot beradi, baʼzilarini biror munosabat bilan tilga oladi yoki eslab oʻtadi.

Voqealar rivojida muhim oʻrin tutgan Umarshayx mirzo, Husayn Boyqaro, Sulton Ahmad mirzo, Xisravshoh kabi tarixiy shaxslarning faoliyati va sarguzashtlarini bayon etish bilan birga, ularning shakl – shamoyili, nasl – nasabi, maʼnaviy qiyofasi, xislati, xulq-atvori, kishilarga munosabati, madaniy saviyasi va boshqa jihatlarini ham tasvirlaydi, xilma-xil badiiy portretlar, xarakterlar yaratadi. Bunday personajlar bevosita tarixiy roman yoki qissalardagi qahramonlarga oʻxshab ketadi. Bobur ularning taʼrifi va tavsifini bir joyga toʻplab, mujassamlashtirib beradi, bu bilan kitobxonni tarixiy shaxs bilan tanishtiradi, shundan keyin voqealar bayonini davom ettiradi.

“Boburnoma”da ilm – fan, sanʼat va adabiyot ahllariga ham katta oʻrin berilgan. Bobur Navoiy, Jomiy, Binoiy, Muhammad Solih, Hiloliy, Sayfi Buxoriy, Mir Husayn Muammoiy, Shayxim Suhayliy, Yusuf Badeiy, Ahmad Hojibek Behzod, Sulton Ali, Xoja Abdullo Marvoriy, SHoh Muzaffar, Fulom Shodiy, Husayn Udiy kabi qator shoirlar va sanʼatkorlar haqida maʼlumot beradi, ularni maʼlaydi, asarlardan namunalar keltiradi, baʼzan hayoti, faoliyati va shaxsiy sifatleri haqida qiziqarli faktleri keltiradi. “Boburnoma” bu kishilarning hayoti va faoliyatini oʻrganishda, ularning madaniy hayotdagi oʻrnini belgilashda juda ahamiyatlidir.

“Boburnoma”da shu darajada koʻp turli – tuman maʼlumotlar borki, fanning deyarli barcha sohalaridagi mutaxassislar bu asardan bahramand boʻla oladilar. Shular bilan bir qatorda “Boburnoma” oʻzbek adabiy tilining juda muhim yodgorliklardan biridir. Bu asar orqali biz XV asr oxiri XVI asr boshlaridagi oʻzbek adabiy tili va hamda uning oʻsha davrdagi asosiy shevalardagi boʻlgan Andijon shevasi haqida keng va mukammal tasavvurga ega boʻlamiz.

Bobur oʻzining “Boburnoma” sida ayrim tovushlarning qoʻllanilishi va hatto ularda uchraydidan baʼzi jarayonlarni izohlash bilan ham tovushlar tadqiqotchisi ekanligini namoyish etadi. Bu ayni payda bizga oʻsha soʻzning, hatto baʼzi urgʻularning tarixini belgilash uchun ham qimmatli manʼba boʻlib xizmat qiladi.

“Boburnoma”da nosir Boburning sanʼatkorlik mahorati ham sezilib turadi. Asarda romantik tuygʻu, yuksak badiiy vositalar – tashbeh, istiora, majoz, mubolagʻa, badiiy sanʼatlari orqali voqea - hodisalarni tasvirlash uning jozibador va goʻzal boʻlishini taʼminlaydi. Nasrda nazm qanchalik anʼana boʻlmasin, har bir adib bu masalaga oʻz oʻlchovi, uslubi, tasviri bilan yondashgan. Masalan, “Boburnoma” da muallif oʻz fikrini nasrda bayon etadi, boshqacha aytganda, shoir Boburdan koʻra nosir Bobur yaqqolroq koʻringan.

“TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

Ma'lumki, “Boburnoma” qo'lyozmalari matnida ba'zi yillar (1504-1505, 1509- 1518, 1520-1524) tafsiloti uchramaydi, 1508 va 1520 yil voqealari bayoni tugal emas. Mana shu uzilish bo'lgan o`rinlarni ingliz sharqshunoslari boshqa tarixiy manbalar asosida ma'lum darajada tiklaganlar. “Boburnoma” forschaga (1586), undan keyin Vitsen tomonidan golland tiliga (1705), A.Keyzer tomonidan qisqartirilgan holda nemis tiliga (1828), Pave de Kurteyl tomonidan to`la holda fransuz tiliga tarjima qilingan. Ushbu asarni tarjima qilish va tadqiq etishda, shuningdek Afg`oniston (Abdulhay Habibiy), Pokiston (Rashid Axtar Nadviy, Shoh Olam Mavliyot), Hindiston (Mirzo Nasriddin Haydar, Muhibbul Hasan Rizviy), Turkiya (R.R.Arat va N.I.Bayur) kabi mamlakatlar olimlarining xizmati ham katta. Rus sharqshunoslari (N.I.Pantusov, S.I.Polyakov, V.Vyatkin) ham “Boburnoma”dan parchalarni tarjima qilganlar. N.I.Ilminskiy bu asarni Qozonda nashr ettirdi.

“Boburnoma” XV asr o‘zbek badiiy nasrining yorqin namunasi sifatida sof badiiy lavhalar, jonli tasvirlar, an‘naviy lirik chekinishlarga boy. Nasriy matn ichida keltirilgan xalq vaqol-matallari, iboralari, ibratli o‘gitlar, she’riy parchalar uning badiiyligini yanada oshiradi, o‘ziga xos joziba bag‘ishlaydi. “Boburnoma”ni o‘rganishga xissa qo‘shgan O‘zbekistonlik olimlarning ilmiy izlanishlari ham, bu asarning nechog‘lik nodirligini izohladi. Professor Fitrat tomonidan tuzilgan “O‘zbek adabiyoti namunalari” xristomatiyasida “Boburnoma” dan parchalar, Boburning 31 g‘azali, 2 masnaviy va 28 ruboiy berilgan. M.Sale “Boburnoma”ni rus tiliga to‘la tarjima qilib, 3 marta (1958, 1982, 1993) nashr ettirdi (S.Azimjonovanning kirish so‘zi va taxriri ostida). P.S.Hamsiyev va S.Mirzaevlar tomonidan “Boburnoma” ning ikki jildli (1948) va bir jildli (1960) nashri chop etildi. 1956-66 yillarda Boburning uch jildli tanilgan asarlari chop etilib, unga Boburning she’riy devoni (1-jild) va “Boburnoma” (2-3 jildlari) kirgan.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, Boburnoma — nafaqat o‘zbek adabiyotining durdona asari, balki jahon adabiy merosining bebaho qismi sifatida e’tirof etilgan noyob manbadir. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining o‘tkir kuzatuvchanligi, chuqur tafakkuri va adibona iste’dodi bilan XV–XVI asrlar Sharq dunyosining siyosiy, ijtimoiy, madaniy hayotini keng va teran aks ettirgan. Bu asar tarixiy hujjat sifatida muhim bo‘lishi bilan birga, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, geografiya, etnografiya va madaniyatshunoslik sohalarida ham noyob ma’lumotlar manbayi hisoblanadi. Boburnomaning ko‘p tillarga tarjima qilinib, dunyo ilmiy jamoatchiligida keng o‘rganilishi uning jahon adabiyoti va tarixshunosligidagi o‘rni naqadar yuksak ekanidan dalolat beradi. Shu jihatdan, Boburnoma o‘z davrining yorqin guvohi, zamonasining jonli tarixiy xotirasi sifatida abadiy qadriyati sifatida

“TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

turkiy tildagi nodir badiiy, ilmiy nasr xazinasini bo‘lganligi bois bugungi kunda ham va hech qachon o‘zining ilmiy – adabiy – ma’rifiy qimmatini yo‘qotmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Азимжоновна С. “Заҳириддин Муҳаммад Бобур” Тошкент, 1995;
2. Бобур. “Мухтасар”, Фан, 1971;
3. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnama” Toshkent-1960
4. Kadirova M., The need for improving the methodology of teaching folklore in distance learning. current research journal of philological sciences, 2022, 3(03), 1–[THE NEED FOR IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING FOLKLORE IN DISTANCE LEARNING | CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES \(inlibrary.uz\)](#)
5. Kadirova M.N.. The need for improving the methodology of teaching folklore. International scientific-online conference: Intellectual education Netherlands. <https://staff.tiame.uz/storage/users/829/articles/nyOCfZLWmrPLJiMMJmugxLcoqGUmIvB9cP2PPxaq.pdf>
6. Omanova, M. A. (2023). Perfect human interpretation in alisher navoy's creation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(1), 346-347.
7. Kalandarova, Dilafruz Abdujamilovna. "Research classification of Karl Reichl." *Current research journal of philological sciences* 2.11 (2021): 29-33.
8. Kadirova M.N. Improvement Of Students' Competences on Folklore Genres in Distance Learning Environment. Nizami Tashkent State Pedagogical University lecturer of the Department of Uzbek language and literature. <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/410>
9. Burxanova, Feruza. "Nazar Eshonqulning ilm-ma’rifat, kitobxonlikka doir qarashlari." *Konferensiyalar/ Conferences*. Vol. 1. No. 12. 2024.
10. Rajabova, Hulkar. "Interpretation of time and space in shorts (Chronotope)(On the example of the stories of the writer Shukhrat Matkarim “Yilon”, “Maqar”, Kholiyor Safarov “Honor and Life”, “Wingless Birds”, “The Saddest Joy”)." *Modern Science and Research* 4.3 (2025): 1332-1340.
11. Махбуба Қадамбоевна Ўразбаева. АЁЛ ХАРАКТЕРИНИ ОЧИШДА БАДИИЙ НУТҚНИНГ ЎРНИ. GOLDEN BRAIN. RAIN ISSN: 2181-41 20. 23.01.10. 193-199- 6. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1179>
12. O‘RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. “Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiali. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf.